

## «Alkenlar» Mavzusini O'Qitishda Integrativ Usuldan Foydalanish

*Genjemuratova Gulxan Perdebaevna<sup>1</sup> Jarekeeva Durdana Berdaxovna<sup>2</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alkenlar mavzusini o'qitishda integrativ usuldan foydalanish nazariyasi, integrativ usulning ustun jihatlari hamda yo'naliishlari muhokama etiladi.

**Kalit so'zlar:** Alkenlar, metod, integratsiya, texnologiya, samaradorlik.

### KIRISH

Yangi asrda jamiyatning barcha sohalarini shiddat bilan qamrab olayotgan globallashuv jarayoni dunyo miqyosida ta'limning ham zimmasiga yangidan-yangi vazifalarni yukladi. Davr fan asoslaridan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish fanning ham, ta'limning ham asosiy muammosiga aylantirib qo'ysi. Natijada ta'limda o'quvchilarning muayyan nutqiy vaziyat, sharoit va madaniy muhitda o'rGANADIGAN fan asoslaridan oqilona, samarali foydalanish kompetensiyasini rivojlantirish masalasi bilan shug'ullanishi zarurligi belgilab berildi.

Integrativ yondashuv fanlararo aloqadorlikdan masalalaridan boshlanib o'z tarixiy-pedagogik merosiga, o'z rivojlanish tarixigava bugungi kundagi yechimlariga turlicha yondashuvlariga ega. Bu muammoning murakkabligi, pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasining zaifligi, muammoning umuman ilmiy bilishning rivojlanishi bilan o'zaro aloqadorligi yetarlicha rivojlantirilmaganligi bilan izohlanadi. K.D.Ushinskiy ta'kidlaganidek, "Fanlararo aloqadorlik muammosini o'rGANISH ko'rsatadiki, bu muammoning rivojlanishi falsafiy bilimlar rivoji, fanlarning integratsiyasi va differensatsiyasi sur'atlari, ijtimoiy va pedagogik muammolarning uyg'unlikda rivojlanishi bilan belgilanadi [1].

### ADABIYOTLAR SHARHI

Integrativ darslar pedagogik jarayonga integrativ yondashuvning xususiy ko'rinishi bo'lib, uning mohiyati yaxlit, ko'p qirralik, barcha usul va metodlarning ta'lim-tarbiyaga yo'nalanligi, mazmunning izchilligi, tashkil qilishning rejali va muvofiqlashtirilganligi kabi belgilarda ochib beriladi.

Integratsiyalashgan darslarni ishlab chiqishning asosi G.F.Fedores tomonidan asoslab berilgan integratsiyalangan -mavzuli yondashuv bo'lib, ta'lim jarayoni birligi sifatida dars emas, balki o'quv fanining mavzusi olinadi [2].

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ta'lim tizimida integratsiya ikki xil ma'noda qo'llanishi mumkin:

1. Talabalarda atrofimizdagi olam haqida bir butun, yaxlit tasavvurni shakllantirish (bunda integratsiyaga ta'lim maqsadi sifatida qaraladi).
2. Predmetlardan beriladigan bilimlarni yaqinlashtirishning umumiyl platformasini topish (bu yerda integratsiya-ta'lim vositasi hisoblanadi). Birinchi ma'no bo'yicha integratsiya talaba bilim dargohiga dastlabki qadamini qo'yishidanoq, dunyoni yaxlit, bir butun, uning barcha elementlari o'zaro bog'langan tizim sifatida tasavvur qilib olsin. Ikkinci ma'noda integratsiya o'quv fanlaridan beriladigan bilimlarning o'zaro to'qnash (uchrash)gan yeri (nuqtasi)da yangi tasavvurlarni anglay olsin. Dastlab, fanlardagi fikr(g'oya)lar to'qnashgan nuqtada avvaldan bo'lgan tabaqalashgan

<sup>1</sup> Qoraqalpoq davlat universiteti, dotsenti

<sup>2</sup> Qoraqalpoq davlat universiteti kimyo ta'lim yo'naliishi magistranti



bilimlardagi kamchiliklarni to'ldirishga, ular o'rtasida bo'lgan bog'lanishlarni tarkib toptirishga da'vat etsin. Ta'limdagি integratsiyani quyidagicha ifodalashni lozim topdik [3]:

1. Butun borliq haqida yaxlit tessavvur hosil qilish (bu yerda integratsiya ta'lim maqsadi sifatida qaraladi);
2. Turli fan bilimlarini yaqinlashtirish uchun umumiyl platforma toppish (bunda integratsiya vosita sifatida ishlataladi).
3. Rivojlantiruvchi ta'lim berish vositasi sifatida.
4. Umuminsoniy, milliy tarbiya vositasi sifatida.

Alkenlar mavzusini o'qitishda ham integrative yondashuv muhim ahamiyatga ega. Etilen molekulasi yassi xolatda va valent burchaklari 1200 ga yaqin bo'ladi. Bu C ning ikkala atomlari sp<sub>2</sub> gibrildanishiga mos keladi. C-H gibrildangan orbitalari H ni 1s orbitali hamda uglerodning sp<sub>2</sub> gibrildangan orbitalari qoplanishi orqali hosil bo'ladi. Etilendagi C-H bog' etandagi H ning 1s orbitali va C ning sp<sub>3</sub> gibrildangan orbitalari qoplanishi hosil bo'ladi.

Bu uglerod atomini sp<sub>3</sub> orbitaliga nisbatan sp<sub>2</sub> orbitali qisqa va elektromanfiyligi yuqoriligini anglatadi. Etilendagi C atomlari o'rtasidagi sigma-bog' har bir uglerod atomlarining ekvivalent bo'lgan sp<sub>2</sub> gibrildangan orbitallar bir-birini qoplashi oqibatida hosil bo'ladi. Pi-bog' esa har bir uglerod atomlarining 2 ta gibrildanmagan p orbitalari qoplanishi tufayli hosil bo'ladi. Bu orbitallar paralleldir va bu maksimal qoplanilishini ta'minlab beradi. Pi-bog' etilen molekulasini tekislik perpendikulyar bo'lgan simmetriyasiga ega.

Alkenlar izomeriyasi.

Uglerod atomlari  $n \geq 4$  soniga teng bo'lgan hamda C<sub>n</sub>H<sub>2n</sub> tarkibli oddiy alkenlar uchun izomeriyani 3 ta turi mavjuddir:

1. Uglerodli skelet izomeriyasi.
2. Ikkilamchi bog' holat izomeriyasi.
3. Geometrik izomeriya. Bunda ikkilamchi bog' maydoniga nisbatan o'rinn oluvchilar fazoviy turishi bilan ifodalanadi.

Alkenlarni ikkilamchi bog'ida alfa va betta dio'rinal mashganlar holatida vodorod yoki boshqa xil o'rinn oluvchilar 1 ta stis- xolati yoki xil trans- xolatida turishi mumkin va bu 2 ta stereoizomerlar hosil bo'lishiga imkon beradi, bularni stis-trans izomerlar yoki geometrik izomerlar deyiladi.

STis-trans molekulaning izomerlari axiraldir, chunki simmetriya maydonlariga ega. Shuningdek bir-biriga nisbatan ular diastereomerlardir.

### **Alkenlarni termodinamik barqarorligi.**

Sis-trans izomerizastiya 250S da o'zidan-o'zi sodir bo'lmasligiga qaramasdan, ikkala geometrik shakl bir-biriga aylanish sharoitlarini oson tanlash mumkin. Masalan, sulfat yoki boshqa kislota miqdori ishtrokipda stis- va trans- 2-butendan bir xil tarkibli aralashma hosil bo'ladi.

### **Qo'sh bog' orqali mono-, di-, tetra-**

**o'rinn almashgan alkenlar o'zining termodinamik barqarorligi bilan farqlanadi. Quyidagi jadval ma'lumotlariga ko'ra alkenlarning barqarorligi qo'sh bog' ostidagi alkil o'rinn oluvchilar soni ortishi bilan barqarorligi ortadi. Etilenni gidrogenlashdagi issiqligi -**

**32.8 kkal/mol ni tashkil etadi, lekin propen, buten-1 va 1-**

**alkenlar uchun u taxminan 2.5 kkal/molga kamayadi. Qo'sh bog' ostida o'rinn oluvchilarining sonini ortishi  $\Delta H$  kattaligini kamayishiga olib keladi.**



Alken	- N kkal/mol
CH <sub>2</sub> =CH <sub>2</sub>	32,8
CH <sub>3</sub> CH=CH <sub>2</sub>	30,1
CH <sub>3</sub> CH <sub>2</sub> CH=CH <sub>2</sub>	30,3
CH <sub>3</sub> CH <sub>2</sub> CH <sub>2</sub> CH=CH <sub>2</sub>	30,1
CH <sub>3</sub> CH <sub>2</sub> CH <sub>2</sub> CH <sub>2</sub> CH=CH <sub>2</sub>	30,1
(CH <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> CHCH=CH <sub>2</sub>	30,3
(CH <sub>3</sub> ) <sub>3</sub> CCH=CH <sub>2</sub>	30,3
(CH <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> CqCH <sub>2</sub>	28,0
CH <sub>3</sub> CH <sub>2</sub> C(CH <sub>3</sub> )qCH <sub>2</sub>	28,5
(CH <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> CHC(CH <sub>3</sub> )qCH <sub>2</sub>	28,0

Jadvalga muvofiq ravishda alkenlar o'z barqarorligiga ko'ra quyidagi qatorga joylashadi.

Qo'shbog`da mono-, di -, tri-va tetraalmashgan alkenlarning hosil bo'lish issiqligining termodinamik natijalaridan xam yukoridagiga o'xhash barqarorlik ketma-ketligi kelib chikadi.

Alken	kkal/mol
CH <sub>2</sub> =CH <sub>2</sub>	Q12,50
CH <sub>3</sub> CH=CH <sub>2</sub>	Q4,50
CH <sub>3</sub> CH <sub>2</sub> CH=CH <sub>2</sub>	-0,30
	-1,67
	-2,67
(CH <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> CHCH=CH <sub>3</sub>	-10,17
(CH <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> CqC(CH <sub>3</sub> ) <sub>2</sub>	-15,91

### Alkenlarni hosil bo'lish issiqliklari

Hozirgi vaqtida alkil almashingan etilenlar qatorida barqarorligini o'zgarish sabablari to'g'risidagi bir fikr yo'q. Bularidan biri barqarorlik ortishini giperkonyugastiya effekti bilan tushuntiriladi.

Qo'sh bog`da metil radikallarlar qancha ko'p bo'lsa C-H va C=C giperkonyugastiya effekti shunchalik katta bo'ladi xamda alken shunchalik barqaror bo'ladi.

Alkenlarni barqarorligini o'zgarishiga alternativ ifodasi bog`lar uzunligi va energiya farqlarida asoslanadi, bundagi qo'sh bog`lar sp<sub>2</sub> va sp<sub>3</sub> gibridlangan uglerod atomi bilan hosil bo'lgan. Sigma bog` S sp<sub>3</sub>-Csp<sub>3</sub> ga ko'ra sigma bog` Csp<sub>2</sub>-Csp<sub>3</sub> uzunroq va mustaxkamroqdir. Masalan, propendagi sigma bog` Csp<sub>2</sub>- Csp<sub>3</sub> propandagi Ssp<sub>3</sub>-Csp<sub>3</sub> bog`idan uzunroq va mustaxkamroqdir.

Shu gipotezaga asosan, alkenlarni termodinamik barqarorligi ularni molekulalaridagi Csp<sub>3</sub>-Csp<sub>2</sub> bog`lar soniga to'g'ri praporstionaldir va monoalkiletlenlardan tetraalkiletlenlarga o'tishda ko'tariladi.



Shu ikkita alternativ ifodalardan uglerodni sp<sub>3</sub> va sp<sub>2</sub> gibridlanish xarakteriga bog`liq ravishda S-S sigma bog`ini uzunligi va energiyasini o`zgarish ifodasi qulayroqdir.

Termodinamik barqarorlikni analogik ketma-ketligi alkinlarni uchlamchi bog` ostida mono- va di-alkil o`rin oluvchilarida xam kuzatiladi.

## XULOSA VA MUNOZARA

Kimyo fanini o`qitishda integrativ yondashuv juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu fanni, jumladan Alkenlar mavzusini tabiat qonunlariga, atrof-muhit omillariga bog`lab, kompleks tarzda o`qitish yuqori samaradorlik keltirishini bilib oldik.

## ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Muhammadiev J.M. Latipov.A. Integrativ texnologiyalaridan foydalanish Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallar. Maqolalar to`plami. Toshkent.2016-yil 28-iyun
2. Hasanboev J., To`raqulov X. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug`at. – T.: «Fan va texnologiya», 2019.
3. Yormatova D. Tabiiy fanlarning zamonaviy konsepsiysi. – T.: «Aloqachi», 2018.
4. Turdiqulov E. Tomchi suvda hayot jilvasi. – T.: «Ma`naviyat», 2011.
5. Boshlang`ich ta`lim bo`yicha yangi tahrirdagi Davlat ta`lim standarti. – T., 2010.
6. Janabergenova, A. J. (2018). Organization and Forms of Students' Independent Work on Higher Mathematics at Pedagogical University. Eastern European Scientific Journal, (2).
7. Janabergenova, A. J. (2021). Setting Goals on Smart Techniques and Affecting Student Motivation. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 9333-9336.
8. Perdebaeva, G. G., & Maxmud Qizi, J. J. (2022). Oliy Ta`Lim Muassasalarida Organik Kimyo Fanlarini O`Qitish. Miasto Przyszlosci, 29, 309–311. Retrieved from
9. Genzhemuratova Gulshan Perdebayevna TEACHING OF ORGANIC CHEMISTRY TO STUDENTS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH COMPETENCY-BASED APPROACH NeuroQuantology |December 2022 | Volume 20 | Issue 21| Page 452-454 | doi: 10.48049/NQ.2022.20.21.NQ99052

